LISONIY HAMJAMIYATNING MULOQOT VOSITALARI (YOSHLAR NUTQIDA SLENG)

Musurmonqulov Adham Abdurashid o'g'li
TerDPI o'qituvchisi
Abdiyeva Mehriniso Farhod qizi
TerDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda lisoniy hamjamiyat tushunchasi, lisoniy hamjamiyatda qo'llaniladigan muloqot vositalari, ularning turlari va ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari, yoshlar nutqida slengning qo'llanilishi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: lisoniy hamjamiyat, muloqot vositalari, argo, jargon, sleng va ularning zamonaviy kommunikatsiyada roli.

Abstract: This article discusses the concept of language community in modern linguistics.We will consider the concept of slang, the means of communication used in a language community, their types and sociolinguistic characteristics, the use of slang in youth speech.

Keywords: linguistic community, means of communication, argot, jargon, slang and their role in modern communication.

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция языкового сообщества в современной лингвистике.Мы рассмотрим понятие сленга, средства коммуникации, используемые в языковом сообществе, их типы и социолингвистические характеристики, использование сленга в речи молодежи.

Ключевые слова: языковое сообщество, средства коммуникации, арго, жаргон, сленг и их роль в современной коммуникации.

Lisoniy hamjamiyat – umumiy til yoki til variantidan foydalanadigan, o'zaro muloqot qiluvchi insonlar guruhidir. Bunday hamjamiyatda til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy identifikatsiya omili sifatida ham xizmat qiladi. Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarovalarning hammualliflikdagi "Sotsiolingvistika" kitobida lisoniy hamjamiyat tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "Lisoniy hamjamiyat – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari va turli ijtimoiy institutlar bilan o'zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyi tushuniladi". [1: 9-b] Lisoniy hamjamiyat deganda, katta bir davlatdan tortib, kichik ijtimoiy guruhlar (oila, sport komandasi)ga kiruvchi turli miqdordagi individlar majmuyini tushunishimiz mumkin.

Lisoniy hamjamiyatda muloqot vositalarining bir qancha turlari mavjud:

a) Verbal vositalar (og'zaki nutq, yozma nutq, adabiy til va shevalar);

Verbal vositalar muloqotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi va u axborotni aniq va tizimli yetkazishga xizmat qiladi.

b) Noverbal vositalar mimika (yuz ifodalari), jestlar (qo'l harakatlari), intonatsiya (ohang), tana harakatlari;

Noverbal vositalar verbal nutqni to'ldirishga harakat qiladi va hissiy ma'no yuklaydi.

c) Paralingvistik vositalar (ovozni baland-pastligi, tembr, pauza);

Bu vositalar nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

d) Zamonaviy kommunikativ vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, messendjerlar, blog va forumlar.

Ular yangi turdagi lisoniy muhitni shakllantirib, "raqamli lisoniy hamjamiyat"ni yuzaga keltiradi.

Lisoniy hamjamiyatda muloqot vositalarini o'zgartiradigan omillar ham mavjud.

Bular: Yosh, ijtimoiy qatlam, ta'lim darajasi, hudud (dialektlar). Masalan, yoshlar nutqida sleng va qisqartmalarning ko'p qo'llanilishini ko'ramiz, rasmiy muhitda esa adabiy til yuqori darajada ustunlik qiladi.

Yoshlar nutqi lisoniy hamjamiyatning eng dinamik qatlamlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar nutqi tez o'zgaradi, innovatsiyalarga ochiq, shuningdek, norasmiylik darajasining yuqoriligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi. Aynan shu sababli yoshlar nutqida sleng, argo va jargon birliklari keng qo'llanadi.

Bu birliklar muloqotni soddalashtiradi, hissiy-ekspressiv ta'sirni kuchaytirib ifodalaydi. To'g'ri, gapda so'zlashuvda hissiylik, emotsiya, ekspressivlik yuqori bo'lishi kerak, lekin "Har narsada me'yor yaxshi" deyilganidek sleng, argo, jargonlardan me'yorda emas, noto'g'ri ma'noda qo'llash ham yo'q emas, albatta. Salbiy jihatlarining ko'rinishi bilan gaplashishdan oldin, sleng, argo, jargon tushunchasi bilan gaplashaylik. "Argo", "jargon" fransuzcha (argot, jargon)dan kelib chiqqan, "sleng" inglizcha (slang)dan olingan. Bu uch termin ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Biroq mazkur terminlar ortidagi yashirin tushunchalarni chegaralab olish maqsadga muvofiqdir. [2: 16-b.] Fikrimizcha, sleng, argo, jargonlardan yoshlar nutqida keng qo'llanilishi bu zamonaviy kommunikatsiya jarayonining tabiiy hodisasi hisoblanadi, sababi ommaviy axborot vositalari, internet, globallashuv, yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bu birliklar, tushunchalardan me'yordan ortiq ko'p qo'llash adabiy tilimizning buzilishiga sabab bo'lishi, shubhasizdir. Shu sababli, biz norasmiy nutq bilan

birgalikda adabiy til madaniyatini ham unutmasligimiz va har birini o‘z o‘rnida (nutq uslublariga rioya qilgan holda) qo‘llashimiz kerak. Bu tilimizning o‘sishiga va o‘lik tillar safiga kirmasligiga olib keladi. Tilimizga alohida, xalqqa bergan e'tiborimizdek qarashimiz kerak, zero Mir Alisher Navoiy bobomiz ta'kidlaganlaridek, "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz".

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan boshqalardan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari. Masalan, oq (aroq), qizil (vino) - ichuvchilar nutqiga xos, strelka (uchrashuv) yoshlarning nutqida.

Argo – jargondan farqli o‘laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo‘llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til. Masalan, o‘g‘rilar argosida shmon qilmoq, gopstop qilmoq iboralari "o‘g‘irlamoq" ma'nosida, giyohvandlar argosida dori "giyohvand modda" ma'nosida ishlatiladi.

Ko‘rib turganimizdek, argo jargonlarga nisbatan salbiy ma'noda qo‘llanilar ekan. Jargonlar esa ko‘proq ijobiy ma'noda qo‘llaniladi. Argolar josuslar, jinoyatchilar, o‘g‘rilar, giyohvandlar, fohishalar va h.k.lar nutqida ko‘proq uchraydi.

Argolar ham, jargonlar kabi so‘zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi. Masalan: Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi" dramasidan olingan quyidagi parchada malhuz emas, ne'mati jannat kabi birlik uchraydiki, bunda so‘zlovchining maqsadi ommadan sir tutilganligi ma'nosi ifodalangan: "Mullar o‘zi. Bizga ziyofat malhuz emas. Ne'mati jannatni keltir". Bu parchada malhuz emas – "o‘ylab ko‘rilgan emas", "Ne'mati jannat" – "Yor, mahbuba ma'nolarida qo‘llanilgan". [3: 149-b.] Ko‘rib

turganimizdek "o'ylab ko'rilgan emas", " xos emas" so'zlari o'rniga ijodkor "malhuz emas", " yor, mahbuba" so'zlari o'rniga "ne'mati jannat" iboralaridan foydalanmoqda. Bu iboralar oddiy ma'noda emas, balki ramziy va yashirin ma'noda qo'llanganini ko'rsatadi.

Shu kabi sir tutilgan ma'nolar orqali ijodkor tilimizning badiiy imkoniyat chegarasining qanchalik keng va ma'nodor ekanligini biz kitobxonlarga anglatmoqda.

Sleng so'zining qachon paydo bo'lgani noma'lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o'sha davrda "haqorat" ma'nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin "noqonuniy" oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo'llanila boshladi. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo'llaydigan slang-lingo va "rang-barang" aholi foydalanadigan argot singari sinonimlari ham paydo bo'lgan. [4: 154-b.] Manbalarda slenglarning yozma ravishda paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor, biroq avval og'zaki nutq shakllanganligini hisobga olsak, sleng so'zlar ham dastlab og'zaki nutqda uchraydi degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi. Adabiy va milliy til qoidalaridan uzoqlashganligi sababli, slenglar o'sha davrlarda faqat salbiy ma'nolarda (haqorat kabi) ishlatilgan. Keyinchalik esa bu birlikning ham tabaqalanish nuqtayi nazaridan sinonimlari mavjud bo'lgan. Ya'ni quyi tabaqalar qo'llaydigan slang- lingo va yuqori tabaqadagilar qo'llaydigan argot singari.

Sleng (slang) – bu norasmiy nutqda ishlatiladigan, og'zaki nutqida qo'llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar. Slenglar ko'proq yoshlarning nutqida uchraydi. Masalan: yoshlar o'zini oladigan, nozlanadigan odamga (aniqrog'i qizlarga) nisbatan "olmaxon" deb murojaat

qilishadi. Bularga ko'p misol keltirish mumkin. Shuningdek, shakl, ko'rinish jihatdan xunuk bo'lgan insonlarni "g'isht"deb aytishadi. [5: 17-b.] Lol qoldiradigan ishlar yoki vaziyatlar bo'lsa "sindirdi" deyishadi. Slenglar dastlabki shakllanish davrida ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan. Chunki, aksariyat slenglar ko'chma ma'noda, yoki chet tilidan o'zlashtirilgan bo'ladi. Masalan, *"tusovka", "telejka", "tachka", "stukach"* rus tilidan, *"yuzer" (user), "chat" (chat)* ingliz tilidan o'zlashtirilgan. Yana o'zbek yoshlari orasidagi suhbatlarga e'tibor qaratsak: – *Nimaga kola ichmayapsan? – Marojnega kola o'tirmedi, fanta o'tiradi*. (so'zlashuvdan). Yoki, "o'zindan aqllini yoqvomagin" kabi gaplar. Slenglar ham ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llaniladi. Yoshlar chiroyli qizlarni ko'rsa, *"daxshat qiz ekan"* deyishadi. Bu ko'cha nutqida ishlatiladi va ijobiy bahodagi slengga misol bo'loladi. Salbiy ma'nodagi slengga esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, *"g'isht ekansan"* so'zini olishimiz mumkin bo'ladi. Bular jumlaga salbiy baho beradi.

Bugungi kunda slenglarning katta qismini chet tili so'zlari egallamoqda. Bu holat, asosan, yoshlar orasida urfga aylangan. Hozirgi zamonaviy yoshlar nutqida slenglar vujudga kelishiga sabab bo'ladigan bir qancha sabablar mavjuddir. Bular:

chet tillarini o'rganish;

dunyo bo'ylab sayohatlar;

kompyuter texnologiyasining rivojlanishi;

ommaviy axborot vositalarini muntazam ko'rib borishdir.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sleng, argo va jargonlar tilning boyishiga va yangi leksik qatlamlarning shakllanishiga hissa qo'shadi. Biroq ularning qo'llanishi asosan norasmiy muloqot doirasida samarali bo'lib, rasmiy nutqda me'yoriy cheklovlarga rioya qilish zarurligi aniqlandi. sleng, argo va

jargonlar kommunikativ ehtiyoj natijasida yuzaga kelib, til tizimining tabiiy rivojlanish jarayonini aks ettiradi.

Umuman olganda, lisoniy hamjamiyatning muloqot vositalarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet. 2014. 84 b.
2. Odilov Y., Tursunov M., Qudratova S., Ravshanova F. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 149 b.
3. Odilov Y., Tursunov M., Qudratova S., Ravshanova F. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 154 b.
4. Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet. 2014. 17 b.